

Ádebiyatlar

1. Ажимова З.Г., Кошаева З. Новые технологии для развития коммуникации детей с тяжёлыми нарушениями речи. Republican scientific and practical conference «Theories of education of thinkers and reformist enlighteners and mechanisms for their use». May 20-21, 2025. –P. 254-258.
2. Ахутина Т.В., Пылаева Н.М. Нарушения речи у детей: диагностика и коррекция. – Москва: «Просвещение», 2020.
3. Воронкова В.В. Логопедические технологии: современные подходы. – Санкт-Петербург: «Речь», 2019.
4. Глухов В.П. Инновационные средства обучения в логопедии. – Москва: «Академкнига», 2021.

REZYUME. Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida motor alaliyasi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. AAC texnologiyalari, AR/VR platformalari va sun'iy intellektidan foydalanish imkoniyatlari aniqlanib, ularning logopedik tuzatish va rivojlantirish jarayonidagi samaradorligi bayon etiladi. Amaliy misollar va tajribalarga tayangan holda, texnologiyalarni joriy etishdagi shartlar, pedagoglarni tayyorlash va oila bilan ishlashning ahamiyatini ko'rsatadi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются основные направления формирования коммуникативных навыков у детей с моторной алалией на основе современных цифровых технологий. Определяются возможности использования технологий AAC, платформ AR/VR и искусственного интеллекта, а также описывается их эффективность в процессе логопедической коррекции и развития. Опираясь на практические примеры и опыт, статья демонстрирует условия внедрения технологий, важность подготовки педагогов и работы с семьями.

SUMMARY. The article examines the main directions of developing communicative skills in children with motor alalia based on modern digital technologies. The possibilities of using AAC technologies, AR/VR platforms, and artificial intelligence are identified, and their effectiveness in the process of speech therapy correction and development is presented. Based on practical examples and experience, the conditions for implementing technologies demonstrate the importance of teacher training and working with families.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INTERAKTIV O'QUV MAJMUALARIDAN FOYDALANISH

M.X.Allamberganova – *pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, elektron resurslar, axborot texnologiyalar, elektron qo'llanmalar, multimedia dasturlar, interaktiv o'quv metodik majmua.

Ключевые слова: дошкольное образование, информационные технологии, электронные пособия, электронные пособия, мультимедийные программы, интерактивный учебно-методический комплекс.

Key words: preschool education, electronic resources, information technology, electronic manuals, multimedia programs, interactive educational and methodological complex.

Kirish. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llagan holda, shu jumladan, elektron ta'lim resurslardan foydalangan holda dars tashkil etish yaxshilangandagina har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash vazifasi amalga oshadi.

O'zbekiston Respublikasining «Rivojlanish strategiya»sida ta'limning zamonaviy metodik qurollarini yaratish bo'yicha yangi vazifalarni belgiladi. Albatta 2023-yilni «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim» yili deb nomlanishi ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni va elektron ta'lim o'quv vositalarini joriy etishni taqozo qiladi [1].

Bu aytilgan vazifalardan kelib chiqib, ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirishda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda amaliyotga axborot ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda kasbiy faoliyatga yo'naltirib bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish zaruriyati kelib chiqadi.

O'quv-tarbiya jarayonini didaktik ta'minlashning muhim shartlaridan biri o'quv materiallarini talabalarga interfaol usullar va elektron ta'lim resurslari vositasi yordamida chuqur o'rgatish hisoblanadi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitish jarayonlarini texnologiyalashtirishning fundamental masalalari B.Adizov [2], N.Azizxodjaeva [3], N.Muslimov, M.Usmonboyev, D.Sayfurov, A.To'raev [5] kabi olimlar o'qitish sifatini oshirish, masofaviy va aralash ta'lim sharoitida talabalarni

kasbiy shakllantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Gibbons M., Foks D., Vestenburg A., Kraven D. [4], P.Y.Galperin, I.V.Robert, Yu.Shafrin kabi xorijlik olimlar elektron ta'lim resurslari vositalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish va samaradorligini baholashning diagnostik va monitoringga xos jihatlarni tadqiq etishgan.

Asosiy bo'lim. Zamonaviy axborot texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llanishi mavjud bo'lgan ko'pgina tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois, ta'lim va o'qitish jarayonlariga boshqacha yondashuv hamda e'tibor bilan qarala boshlandi.

Interaktiv o'quv majmualar (IO'M) – zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan iborat bo'lib, u an'anaviy o'quv majmualardan farqli o'laroq, o'qitishning kompyuter va an'anaviy texnologiyalari majmuasi sifatida ta'limda namoyon bo'ladi.

O'quv materialini talabalarga yetkazishda uning qoliqli dastur ish rejasidan farqlanuvchi qiziqarli uslubda yaratish o'qituvchining kasbiy va zamonaviy axborot-kommunikatsiya imkoniyatlaridan mohirona foydalanishiga bog'liq.

Bugungi kun yoshlarimiz texnika, axborot asri yoshlari. Chunki talabalarimiz yoshligidan texnik vositalardan foydalanib ko'nikmasi rivojlangan yoshlardir. Shuning uchun bugungi kunda talabalarni faqat ma'ruza,

prezentatsion ko'rgazmalar bilan ta'lim berish qoniqtirmaydi. Ta'lim jarayoniga multimedia imkoniyatlaridan foydalanilgan, interaktiv muloqat mavjud va eng asosiysi mustaqil o'zlari ishlay oladigan va o'z-o'zini baholay oladigan ta'lim resurslaridan foydalanish kun talabidir.

Pedagogik mahoratni kasbga yo'naltirish ishlariga tatbiq qilishni bugungi kunning ahamiyatli vazifalaridan deb bilishimiz lozim.

Tabiat va jamiyat hodisalari, ishlab chiqarish jarayonlari ko'pincha shu qadar murakkabki, ularni bir ilm-fan doirasida tavsiflash mumkin emas.

Sh.S.Sharipov va boshqalar muallifligidagi «Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari» o'quv qo'llanmasida kasbga yo'naltirish masalasiga shunday fikrlar beriladi: yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassis pedagoglar ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi.

IO'Mning boshqa majmualardan afzalliklaridan biri ularning mustaqil ta'lim olish, ijodiy fikrlash, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quv materiallari hamda ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama chuqur o'zlashtirilishiga mo'ljallanganligidir. Shuningdek, ushbu turdagi majmualar elektron ta'lim resurslarining bir vositasi bo'lib, IO'M ko'rgazmali materiallarga boyligi, ya'ni turli xil animatsiyalardan foydalanganligi, ta'lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlarini hisobga olganligi jihati bilan an'anaviy o'quv majmualardan afzalroqdir.

Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish omillaridan biri bu elektron darsliklar, interaktiv o'quv majmualardan foydalanishdir.

Maktabgacha ta'lim tizimining qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini Prezidentimizning bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolaning fikrlash darajasi o'rtasidagi farq xususidagi fikrlaridan ham bilish mumkin.

O'zbekistonda birinchi marta barcha maktabgacha ta'lim muassasalariga mavzuviy rejalashtirilgan ta'lim dasturi tarqatildi. Ta'lim jarayoniga endi kirib kelayotgan kichik yoshli bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tamoyili asosida ishlab chiqilgan yangi dastur «Ilk qadam» deb nomlandi.

«Ilk qadam» deb nomlangan yangi dasturda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etishni asosiy me'zon sifatida belgilagan. Bu dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachi va bolalar uchun yangi o'quv-metodik va didaktik adabiyotlarni tayyorlash zaruriyati kelib chiqadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy faoliyatni tashkil etishda bilimlarni o'zlashtirish boshqacha aytganda yangi axborotlar bilan tanishish va ularni anglash hamda o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va zarur texnik vositalar yordami asosida ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim qator tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar qo'yidagilardan tashkil topishi mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining ihtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olishi.
2. Maktabgacha ta'lim bolaning psixomotor, lingvistik va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi,

o'zini ijtimoiy muhitga moslashish va boshlang'ich ta'limga tayyorlashi.

3. Maktabgacha ta'lim bolalarning munosabatlarni o'rnatish va hamkorlikda ishlash, o'zaro hurmat, javobgarchilik hissi, chidamlilik va hayirxorlik tuyg'ularini rivojlantirishiga xizmat qilishligi.

4. O'yinli ta'lim texnologiyasidan foydalanishni o'qitishning asosiy metodi etib belgilash. Barcha amallar o'yinli xususiyatga ega bo'lishligi bolalarga qulay muhitni yaratadi.

5. Ona tilini o'rganish orqali nutqni rivojlantirish va so'zlar bazasini kengaytirish. Bola yoshligidan to'g'ri so'zlash va yozish ko'nikmasini egallaydi.

6. Bolalarning ijodiy tafakkuri va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'zligini anglash va namoyon etish xususiyatlarini shakllantirish.

7. Dasturni amalga oshirishda oila sharoiti va yashash muhiti imkoniyatlarini hisobga olish.

8. Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom rivojlanishi va samarali natijaga erishishini ta'minlashi zarur.

Metodologiyasi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limni amalga oshirish va bilim, ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy o'quv vositalarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan asosiysi hisoblanadi. Ushbu vazifani bajarishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiya imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Chunki bugungi kunning bolalari axborotlashgan jamiyat va texnikaviy asrda ulg'ayotgan va tarbiyalanayotgan shaxslardir. Ushbu omilni hisobga oladigan bo'lsak ta'limiy vositalar yaratishda va axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda yangi o'quv adabiyotlarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Yaratiladigan o'quv axborotlari ta'lim va tarbiyani kompleks amalga oshirish imkonini berishi zarur. Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganganimizda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda multimediyaga texnologiyasidan foydalanish o'ziga xos xususiyatga egaligi isbotlangan. Bu xususiyatlarni o'rganish didaktik materiallarni tayyorlash va undan ta'lim jarayonida foydalanish pedagogik hamda psixologik ta'sir etish usullarini o'rganishni talab qiladi.

Ushbu nuqtayi nazardan bugungi kunda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari uchun o'quv adabiyotlarini yaratishda ko'rgazmalik tamoyiliga ko'proq e'tibor berish kerak. Biz ham ushbu sohada olib borayotgan tadqiqotlarimizda ushbu nazariya nuqtai nazaridan yondashishni ma'qul topdik. Maktabgacha ta'lim dasturi tarbiyalanuvchilarning 5-7 yoshli guruhdagi bolalarga ta'lim berishni nazarda tutadi.

ETR zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik interfaol majmuasidan iborat.

Elektron ta'limni tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);
- virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);
- ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Hammamizga ma'lumki, har bir universitet yoki ta'lim muassasi o'z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining elektron ta'lim resurslarini yaratishga harakat qiladi.

Aynan ushbu maqsadga erishishni nazarda tutib tarbiyalanuvchilar uchun o'quv metodik majmua shaklidagi ta'limiy o'qitish vositasi zarur deb hisoblaymiz va qo'yidagicha o'zimizning majmuamizni taklif etamiz.



1-rasm. Bosh oyna

Bu majmuada o'quv dasturidan tartib tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar uchun o'quv uslubiy ma'lumotlar joylashtiriladi. O'quv majmua 3 funktsional blokdan iborat bo'lib u ta'limiy, tarbiyaviy va nazorat qiluvchi bo'limlardan iboratdir.



2-rasm. Sarlavha


Masalan qo'yidagi blok o'rgatuvchi vazifasini bajarib bilimlarni egallashni amalga oshiradi.



3-rasm. Topshiriqlar

Bunda bilimlar nafaqat ko'rgazmali balki audio-vizual shakllarda namoyon etiladi. Bu esa tarbiyalanuvchilarda axborotlarni qabul qilish, ularni esda saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Bilimlarni mustahkamlash maqsadida harxil nostandart topshiriqlar berilgan. Bunda tarbiyalanuvchi amaliy mashqni bajarish orqali amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.



4-rasm. Topshiriqlar

Masalan rasmda ko'rsatilgan mashqda tarbiyalanuvchi ko'rsatilgan harfdan boshlanadigan rasmni topishi kerak. Bunda savol ovozi o'qiladi. Bergan javobning to'g'ri yoki noto'g'riligi ham ovozlashtirilgan. Ya'ni ekspert xulosa beriladi va qayta bajarish imkoni beriladi. Navigatsiya va interaktiv muloqat o'rnatish xususiyatlari hisobga olingan.

O'rganilgan tushunchalarni tekshirish, baholash uchun nostandart topshiriqlar berilgan. Bu topshiriqni kompyuterda tarbiyalanuvchi individual yoki tarbiyachi yordamida bajarishi mumkin. Masalan, quidagi rasmda mosliklarni topish vazifa etib berilgan. Bunday topshiriq tarbiyalanuvchilarda tanlash, tanish va tahlil qilish ko'nikmalarini belgilab beradi.



5-rasm. Topshiriqlar

Yaratilgan elektron o'quv majmuada tarbiya masalasiga ham alohida o'rin ajratilgan bo'lib, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi, o'z vatanining ramziy belgilari bilan tanishish, bolalar ijodkorligini rivojlantirishda qo'shiqlar to'plamidan va xalq ertaklarini eshitib insoniy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy ishlarni tashkil etuvchi bo'limlarni o'zida mujasamlaydi.

Tarbiyalanuvchilarnig bo'sh vaqtini mazmunli zavqli o'tkazish uchun va bayram tadbirlarida foydalanish uchun qo'shiqlar to'plami, ertaklar to'plami keltirilgan.

Masalan Ko'ngilli tanaffus bo'limida bolajonlarimiz uchun yozilgan qo'shiqlar ro'yxati keltirilgan.



6-rasm. Mashqlar

Agarda bolajonlarimizga uxlash oldidan qiziqli ertakni eshittirsa bolajonlarimiz miriqib tinglaydilar, birgalikda suhbatlashib xulosa chiqaradilar. Bu esa bolajonlarimizda mehirlı bo'lish, bir-birini tushunish, mulohaza qilish hattoki qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga zamin bo'ladi.

Xulosa. Bugungi kunda smart-interaktiv ta'limni ko'pchilik harxil talqin qilmoqda. Xorijiy olimlar Dj.G.Hvan, K.Skott va R.Benlamrilar bu ta'lim texnologiyasini ko'proq ta'lim mazmuni kontekstiga urg'u beradi, D.Gvak SMART kontseptsiyasini birinchidan bu ta'lim qanday texnik vosita emas, balki

ta'lim olayotgan o'quvchi qiziqishi yoki yo'nalishi va ta'lim kontenti mazmuniga yo'naltiradi, ikkinchidan IT infrastrukturada samarali bilim olishga va ta'limning mustaqil o'rganishini nazarda tutadi degan tadqiqotlarni keltiradi.

Bugungi axborotlashgan ta'lim muhitida aqlli texnologiyalardan foydalanish negizida interaktiv o'quv majmualar katta ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. O'z tajribalarimizdan kelib chiqib elektron ta'lim resurslarini takomillashgan shaklida, yani interaktiv o'quv majmualar tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar uchun samarali natija beradi deb ishonamiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. Адизов Б. Таълимни дидактик лойиҳалаш. // Таълимда ахборот технологиялари Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент: ТДПУ, 2000, 14-15-б.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: «Moliya», 2003.
4. Gibbons M., Foks D., Vestenburg A., Kraven D. Internet (ensiklopediya, rus tilida). – M.: «БИНОМ», 1996.
5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари. – Тошкент: «Сано стандарт», 2015.

REZYUME. Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun interaktiv o'quv majmualardan foydalanish va uning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается применение интерактивных учебных комплексов для дошкольных образовательных учреждений на сегодняшний день и их значимость.

SUMMARY. This article examines the use of interactive educational complexes for preschool educational institutions today and their importance.

BEZEK ARTÍNDAGÍ HIKMET: QARAQALPAQ MILLIY NAĞISLARÍNÍN SÍRLÍ DÚNYASÍ

M.Amanbaev – docent w.w.a

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: naqsh, uslub, motivlar, tasnif, geometrik shakl, o'simlik bezaklari.

Ключевые слова: узор, стиль, мотивы, классификация, геометрическая форма, растительный орнамент.

Key words: pattern, style, motifs, classification, geometric form, plant ornament.

Kirisiw. Qaraqalpaq milliy naǵısı kórkem óneri – xalıqtıń ruwxıy dúnyasınan, turmıs tárizi hám dúnyaqarasınan derek beretuǵın biybaha mádeniy miyras bolıp esaplanadı. Insaniyat áyyemnen qorshaǵan ortalıqtı, tábiyat gózzallıǵın hám óziniń turmıshlıq tájiriybelerin hár qıylı kórkem qurallar arqalı sáwlelendiriwge umılǵan. Usı processte naǵıslar, atap aytqanda, gúl motivleri, insannıń estetikalıq talapların qanaatlandıırıw menen birge, onıń ishki ruwxıy dúnyasın, arızıw-niyetlerin, ómirge bolǵan kózqarasların da sáwlelendirgen. Qaraqalpaq xalıq ámeliy kórkem ónerinde naǵıslar ayrıqsha orın iyelep, ásirler dawamında jetilisip kelmekte. Olar tek ǵana bezek wazıypasın atqarıp qoymastan, al tereń simvolikalıq mánis hám filosofıyalıq ideyalardı da ózinde jámlegen.

Gúl motivleri milliy naǵıslardıń eń áyyemgi hám keń tarqalǵan formalarınan biri. Hár bir gúl ózine tán simvolikalıq mazmunǵa iye bolıp, xalıqtıń turmıshlıq kózqarasları menen tıǵız baylanıslı. Máselen, gúl – gózzallıq hám muhabbat tımsalı, gúl motivleri xalıqtıń tábiyatqa bolǵan mehirin, gózzallıqqa umılıwın hám turmıshlıq filosofıyasın sáwlelendiredi.

Naǵıslarda kompoziciya máselesi ayrıqsha áhmiyetke iye. Kompoziciya naǵıs elementlerin úylesimlilik hám sáykeslik tiykarında jaylastırıw óneri. Usta ónermentler naǵıs sıızında hár bir elementtiń jaylasıwına, ólshemine hám bir-birine sáykes keliwine úlken itibar qaratqan. Naǵıslardıń kelip shıǵıw tariyxı uzaq ótmishke barıp taqaladı. Arxeologıyalıq tabılmalarda ushırasatuǵın hár túrli

geometriyalıq hám ósimlik tárizli naǵıslar áyyemgi adamlardıń kórkem oy-pikiriniń rawajlanǵanlıǵınan derek beredi. Milliy naǵıslar – xalıqtıń estetikalıq kózqarasların, dúnyaqarasın, ómir filosofıyasın jámlegen kórkem miyras. Olardı úyreniw arqalı biz tek ótmishimizdi emes, al búgingi ruwxıy turmısımızdı da jaqsıraq túsınemiz. Sonlıqtan bul maqalada gúl motivleri, kompoziciya máseleleri, naǵıslardıń kelip shıǵıw tariyxı, izertlengen ilimpazlardıń kózqarasları hám klassifikaciya máseleleri hár tárepleme talqılanadı. Bul úyreniw nátiyjeleri milliy naǵıslardıń mádeniy miyras sıpatındaǵı áhmiyetin jáne de keńirek ashıwǵa xızmet etedi.

Izertlewdiń aktuallıǵı. Milliy naǵıslar xalıqtıń estetikalıq talǵamı, dúnyaqarası hám mádeniy miyrasınıń ayqın kórinisi bolıp esaplanadı. Búgingi globalıasıw dáwirinde milliy qádiriyatlardı qásterlep saqlaw, olardı ilimiy jaqtan úyreniw hám zamanagóy kórkem óner jáne dizaynda qayta tiklew máselesi úlken áhmiyetke iye bolmaqta. Sebebi milliy naǵıslar tek ǵana bezek elementi emes, al xalıqtıń tariyxıy esteligi hám ruwxıy baylıǵınıń belgisi bolıp esaplanadı.

Sonday-aq, naǵıslardıń kelip shıǵıw tariyxı, kompoziciyalıq ózgeshelikleri hám ilimiy klassifikaciyası boyınsha izleniwler alıp barıw ámeliy kórkem ónerdi rawajlandırıw, milliy dizayn hám arxitekturada dástúrlerdi zamanagóylik penen úylestiriwge xızmet etedi. Bul bolsa mádeniy miyrastı qásterlep saqlaw menen birge, onı jas áwlad sanasına sındırıw, estetikalıq tárbiyanı qalıplestiriw